

## Deputat bilan uchrashuv

Xalqni rozi qilish, odamlarning o'y va tashvishlari bilan yashash odamiylikning eng muhim mezoni ekanligini e'tirof etgan Prezidentimiz da'vatlaridan ruhlangan holda, deputatlarning uchrashuv va ijodiy muloqotlari tez-tez o'tkazib turilishi quvonarlidir.

2018 yil 24 aprel kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti 4-sonli talabalar turar joyida Xalq Deputatlari Toshkent shaxar kengashi deputati O'z XDP Yunusobod tumani kengashi raisi Nigora Eshmetova hamda tarbiyachi pedagog Javlonbek Qutlimurotovlar davra suhbat o'tkazdi.

Nigora Eshmetova XDP vazifalari faoliyati saylangan deputatlar to'g'risida, Yoshlarning bandligi bo'yicha bandlikka ko'maklash markazi bilan hamkorlikda ishlashi hamda yoshlarga oid qonunlar, huquqlar, uy joy masalalari, imkoniyatlar bo'yicha ma'lumot berildi.

Yoshlar orasida yoshlarning siyosiy huquqiy bilimini oshirish maqsadida yosh siyosatchi klubini tashkil qilish to'g'risida institutimiz talabalari bilan hamkorlikda ishlashni taklif qildilar.



**4 - TTJ tarbiyachi-pedagogi Javlonbek Qutlimurotov axboroti,  
Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**